

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**QAYUMOV BAXTIYOR ZOKIRJON O‘G‘LI**

**O‘SMIRLARDAGI KREATIVLIK RIVOJLANISHINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Psychological  
sciencies**

**Qayumov Baxtiyor Zokirjon o'g'li**

О'smirlarda kreativlik rivojlanishining psixologik xususiyatlari..... 3

**Каюмов Бахтиёр Закиржонович**

Психологические особенности развития креативности у подростков..... 21

**Qayumov Baxtiyor Zakirzhonovich.**

Psychological features of the development of creativity in adolescents..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**QAYUMOV BAXTIYOR ZOKIRJON O‘G‘LI**

**O‘SMIRLARDA KREATIVLIK RIVOJLANISHINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.1.PhD.P.474 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida [www.ndpi.uz](http://www.ndpi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nishanova Zamira Taskarayevna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdurasulov Rustam Abduraimovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Sharafudinova Xadicha Gulyamutdinovna**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro dalat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.30/03.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, psixologiya falari doktori,  
professor

**N.B.Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, psixologiya falari doktori, professor

**N.G'.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi o'rinbosari, psixologiya falari doktori,, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ta'lim tizimi muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, maktab o'quvchilariga sifatli ta'lim berish, mamlakat rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy, ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega o'quvchilar kelajakda har qanday sohaga ma'lum o'zgartirishlar kirita olib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sabab bo'ladi. Globallashuv davrida «... yuqori aqliy qobiliyatli yoshlarni aniqlash, ularni tizimli dastur yordamida qo'llab-quvvatlash»<sup>1</sup>ga e'tibor berish orqali, o'ziga ishongan, bilimli, salohiyatli yoshlarni tarbiyalash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada yoshlarning indikator ko'rsatkichi sifatida kasbiy muvaffaqiyati va salohiyatini aqliy intellektual mezonlar orqali belgilanishi, shaxsning yaratuvchanligi, iqtidori, iste'dodi, talanti jamiyatning strategik zaxirasi sifatida e'tirof etilishi bilan bog'liq muammolarni o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon ta'lim muassasalarida maktab o'quvchilari orasida kreativlik, ijodiy fikrlash, aqliy salohiyat muammolarini tadqiq etish va rivojlantirish yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Global Creativity Index (GCI) ning ma'lumotlariga ko'ra, san'at, ijod va madaniyatga e'tibor yuqori bo'lgan mamlakatlarda kreativlikni rivojlantirish ko'rsatkichi o'sganligi bilan tavsiflanadi. Bu borada, axborot asrida o'quvchilar ta'limini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'limning modernizatsiyalashgan usullarini qo'llash, aqliy salohiyatini kuchaytirish orqali intellektual yoshlar jamoasini shakllantirish, iqtidorli talabalarni kompetentli etib tayyorlash, talabalar intellektini rivojlantirishda o'quv maskanlarining ta'lim sharoitini o'zgartirib o'qitishni tashkil etishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zarurati kuzatilmogda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ijodiy fikrlay oladigan iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi»<sup>2</sup> hamda «...jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida ...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish...»<sup>3</sup> vazifalari belgilanganligi o'quvchilar iste'dodini shakllantirish orqali ularning o'quv faoliyatini muvaffaqiyatini va yo'nalishini belgilashni ilmiy o'rganishda yetarli asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son «Yoshlar — kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida», 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish

<sup>1</sup> National Association for Gifted Children «Pre-K to Grade 12 Gifted Education Programming Standards». 2019. <http://www.nagc.org/resources-publications/resources/national-standards-gifted-and-talented-education>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-son Qarori.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF–60-sonli Farmoni.

chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston psixologlaridan D.Ye.Axnazarova, U.Yu.Latipova, A.A.Odiljonova, R.Yu.Musinova, F.A.Choriyev va boshqalar tomonidan kreativlik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.M.Azariyans, D.B.Bogoyavlenskaya, A.V.Brushlinskiy, S.A.Vodyaxa, V.N.Drujinin, S.S.Savenisheva, Ye.L.Soldatova, G.R.Shafikova va boshqalar kreativlikni rivojlantirish omillari, uni xavotirlik, dunyoqarash, motivatsion tizim bilan aloqadorligini ilmiy tadqiq etishgan.

Xorij olimlaridan G.Ayzenk, A.Binet, F.Galton, J.P.Gilford, R.B.Kettell, J.Locke, K.Perlet, J.Piaget, J.Renzulli, C.Spearman, R.Sternberg, L.L.Thurstone, K.Heller va boshqalar tomonidan kreativlikni ko'p omilli murakkab psixologik tuzilmasi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Psixolog kadrlar tayyorlash, samaradorligini oshirish va psixologik xizmat ko'rsatish, samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish» mavzusidagi ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan (2020-2024 y.y).

**Tadqiqotning maqsadi** o'smirlarda kreativlik rivojlanishining psixologik xususiyatlarini ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'smirlarda kreativlik rivojlanishinig yosh va jinsga oid xususiyatini tadqiq etish;  
o'smirlarda kreativlik maxsus ta'lim sharoitida rivojlanish xususiyatlarini asoslash;

o'smirlarda kreativlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar va ularning xususiyatlarini aniqlash;

o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishga mo'ljallangan psixologik treninglar ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obekti** o'smirlarda kreativlik rivojlanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish jarayoni olingan bo'lib, tadqiqotda Andijon viloyati Andijon tumani 47-maktab, Andijon viloyati Ulug'nor tumani 16-maktab, Farg'ona viloyati

Toshloq tumani 2-maktab, Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 33-maktab, Namangan viloyati Namangan shahar 1-DIMI, Namangan viloyati Namangan tumani 39-maktablardan jami 460 nafar respondentlar jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmetini** o'smirlarda kreativlik rivojlanishining psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** Tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, P.Torrensning «Ijodiy fikrlash», J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik», Ye.Ilinning «Ijodiy qobiliyat», P.Ivanovning «Miya yarim sharlar dominantasini aniqlash», N.P.Fetiskin «Shaxs o'z-o'ziga bahosining verbal diagnostikasi», A.A.Reanning «Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyasizlikdan qo'rquv diagnostikasi», B.N.Smirnovning «Shaxsning psixodinamik xususiyatlari diagnostikasi» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan: Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyenti, Man-Uitning U-mezoni, Vilkokson W-mezoni orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

o'smirlardagi kreativlikning rivojlanishida fikrlashdagi tezkorlik, orginallik, predmet va tushunchalarni abstraktlashtirish, axborotlarni qayta ishlashdagi sinchkovlikning obrazli va predmetli tafakkurga integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib yoshga oid psixologik xususiyatlarni mavjudligi dalillangan.

o'smirlarning fikrlashi hamda miya yarim sharlari dominantligi orasidagi bog'lanishlarga ko'ra o'ng yarim sharlari faol bo'lgan o'quvchilarda obrazli tafakkur hamda kreativlikning intensiv namoyon bo'lishi tufayli fiziologik komponentning ustuvor harakterga ega ekanligi asoslangan;

o'smirlardagi kreativlikni rivojlantirishda ekstrovertlar, reaksiya tempi kuchli bo'lganlarda fikrlashning tezligi, abstrakt tafakkur, faollikning qarashlardagi orginallikka integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib, shaxs individual xususiyatlariga ustuvorlik berish muhimligi dalillangan;

o'smirlarda kreativlik rivojlantirish modeli shaxsda vizualizasiyalash, nostandart fikrlash, ijodiy tafakkurni faoliyatga nisbatan ichki motivasiya negizida namoyon bo'lishi tufayli, goloterepiya, neyrokorreksiya texnologiyalarini integrativ qo'llash mexanizmlari asosida takomillashtirilgan

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotgan kiritilgan;

o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishga doir treninglar majmui ishlab chiqilgan va aprobatsiya qilingan

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 14» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar asosida ilgari surilgan nazariy fikrlar, ilmiy xulosalar «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Psixokorreksiya» sohalaridagi bilimlarni boyitishi mumkinligi bilan belgilanadi talabalarda mustaqil fikrlash motivatsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kreativlik komponentlari va intellekt tiplarining psixologik mazmuni, mohiyati tavsiflangan ilmiy xulosalardan pedagogika va psixologiya yo‘nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, o‘smirlarda kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturdan umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning amaliyotchi psixologlari o‘z faoliyatlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

O‘smirlarda kreativlik rivojlanishining psixologik xususiyatlari tadqiq etish natijalari asosida:

o‘smirlardagi kreativlikning rivojlanishida fikrlashdagi tezkorlik, orginallik, predmet va tushunchalarni abstraktlashtirish, axborotlarni qayta ishlashdagi sinchkovlikning obrazli va predmetli tafakkurga integrativ namoyon bo‘lishiga asoslanib yoshga oid psixologik xususiyatlarni mavjudligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi RM-210 son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Psixokorreksiya» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 30-sentyabrdagi RM 210 a-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘smirlarda kreativlik rivojlanishining yoshga oid xususiyatini tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

o‘smirlarning fikrlashi hamda miya yarim sharlari dominantligi orasidagi bog‘lanishlarga ko‘ra o‘ng yarim sharlari faol bo‘lgan o‘quvchilarda obrazli tafakkur hamda kreativlikning intensiv namoyon bo‘lishi tufayli fiziologik komponentning ustuvor harakterga ega ekanligi asoslangan ma’lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi RM-210 son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Psixokorreksiya» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 30-sentyabrdagi RM-210 a-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘smirlarda kreativlikni namoyon bo‘lishining fiziologik komponenti ochib berilgan;

o‘smirlardagi kreativlikni rivojlantirishda ekstrovertlar, reaksiya tempi kuchli bo‘lganlarda fikrlashning tezligi, abstrakt tafakkur, faollikning qarashlardagi orginallikka integrativ namoyon bo‘lishiga asoslanib, shaxs individual xususiyatlariga ustuvorlik berish muhimligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi RM-210 son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Psixokorreksiya» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 30-

sentyabrdagi RM-210 a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarda kreativlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar va ularning xususiyatlari aniqlashtirilgan;

o'smirlarda kreativlik rivojlantirish modeli shaxsda vizualizatsiyalash, nostandart fikrlash, ijodiy tafakkurni faoliyatga nisbatan ichki motivatsiya negizida namoyon bo'lishi tufayli, goloterepiya, neyrokorreksiya texnologiyalarini integrativ qo'llash mexanizmlari asosida takomillashtirilgan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi RM-210 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» va «Psixokorreksiya» modullariga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 30-sentyabrdagi RM-210 a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishga mo'ljallangan psixologik treninglar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 5 ta ilmiy maqola, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsion ish kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 125 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsion ishning dolzarbligi asoslangan, ilmiy tadqiqot ishlari reja mavzulari bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan, uning o'rganilish darajasi tahlili keltirilgan, dissertatsion tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti bayon etilgan, qo'llanilgan metodlar, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Kreativlik muammosining fanda o'rganilish an'analari**» deb nomlangan birinchi bobi kreativlik va ijodiy tafakkur doirasidagi nazariy tahlillar va yoshdoshuvlarning klassifikatsiyasiga bag'ishlangan. Kreativlik va ijodiy fikrlashning o'xshash va farqlari mualliflik yondoshuvlar asosida asoslangan. Rossiya psixolog tadqiqotchilaridan Ye.M.Bazilevich, L.V.Baranova, A.N.Bobrov, A.N.Jarikova, N.V.Martishkina, S.P.Osipenko, O.A.Xalifayeva, N.A.Tyurmina, N.Ye.Kuzmina, D.S.Xomyakov, M.A.Krilova, S.A.Vodyaxa, Ye.L.Soldatova, I.A.Semenova, Ye.F.Kolomiyets, O.N.Kapirenkova, A.N.Varonin va boshqalarning kreativlik borasidagi zamonaviy tadqiqotlari tizimlashtirilgan. Bundan tashqari, mahalliy tadqiqotlardagi kreativlik rivojlanishini tadqiq etgan olimlarning ilmiy xulosalarini tahlil qilish asosida ular tizimlashtirildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**O'smirlarda kreativlik muammosining empirik o'rganilishi**» deb nomlangan bo'lib, bunda kreativlik rivojlanishining yosh va jins farqlari yoritilgan. Mazkur bobning birinchi bo'limida kreativlik rivojlanishini tadqiq etishda tajribani tashkil etish metodologiyasi yoritilgan. Rivojlanish

psixologiyasining bir nechta nazariyalari, tadqiqotning asosiy tamoyillari sifatida tahlil etilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limida, o‘smirlarda kreativlik rivojlanishining yosh va ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq ravishda qanday namoyon bo‘lishini empirik tekshirish natijalari talqin etiladi.

Mazkur bobda keltirilgan natijalardan shu narsa aniqlandiki, umumiy ravishda, o‘smirlarda kreativlik rivojlanishining yosh va ijtimoiy sharoit tajriba jihatdan farqlari kuzatildi (1-jadval).

**1-jadval**

**J.Brunerning «Tafakkur va kreativlik» testi bo‘yicha o‘quvchilarning sinf bosqichlari kesmada o‘zaro tafovutlari (Mann-Uitni mezonida n=460)**

Ko‘rsatkichlar	Sinaluvchilar Turi	O‘rtacha rang	$\sigma$	U	p
Predmetli tafakkur	7-sinf	239,19	2,28	24246,5	0,13
	9-sinf	221,01			
Ramziy tafakkur	7-sinf	241,58	2,731	23929,5	,075
	9-sinf	219,70			
Belgili tafakkur	7-sinf	247,10	2,778	22676,5	,008**
	9-sinf	214,32			
Obrazli tafakkur	7-sinf	252,61	2,762	21427,5	,000**
	9-sinf	208,96			
Kreativlik	7-sinf	257,89	2,264	20227,0	,000**
	9-sinf	203,81			

Izoh: \* -  $p \leq 0,05$ ; \*\* -  $p \leq 0,01$

Yuqoridagi jadvalda J.Brunner testi bo‘yicha 7-sinf va 9-sinf natijalari berilgan. Unga ko‘ra, «Predmetli tafakkur» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatsiz farqlar aniqlandi. «Ramziy tafakkur» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatsiz farqlar aniqlandi. J.Brunner testi natijasi 9-sinflarga nisbatan 7-sinflarda yuqoriroq ekanligi aniqlandi. «Belgili tafakkur» shkalasi bo‘yicha ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Belgili tafakkur» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 247,10 ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 214,32 teng ekanligi ko‘rinib turibdi ( $U=22676,5$ ;  $p \leq 0,01$ ). «Obrazli tafakkur» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Obrazli tafakkur» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 252,61 ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 208,96 teng ekanligi ko‘rinib turibdi ( $U=21427,5$ ;  $p \leq 0,01$ ). «Kreativlik» shkalasi bo‘yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Kreativlik» shkalasi bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida o‘rta arifmetik qiymat 257,89 ga teng bo‘lsa, 9-sinflarda bu ko‘rsatkich 203,81 teng ekanligi ko‘rinib turibdi ( $U=20227,0$ ;  $p \leq 0,01$ ). Demak, J.Brunner metodikasi bo‘yicha respondentlar orasida tafakkur turlarini hamda kreativlik natijalarini aniqlasak bo‘ladi. Bu metodikaning ayrim shkalalarida ahamiyatli va ahamiyatsiz natijalar aks etdi. Quyidagi 2-jadvalda o‘smirlarda verbal kreativlikning yosh farqlari ahamiyatli tafovutlar bilan aks etgan.

Lekin umumiy tendensiya shuni ko'rsatadiki, 7-sinf natijalari 9-sinf natijasiga qaraganda yuqori ekanligi kuzatildi.

## 2-jadval


### E. Iinning «Ijodiy qobiliyat» so'rovnomasi bo'yicha o'quvchilarning sinf bosqichlari kesmida o'zaro tafovutlari (Mann-Uitni mezonida n=460)

Ko'rsatkichlar	Sinaluvchilar turi	O'rtacha rang	$\sigma$	U	p
Ijodkorlik	7-sinf	206,75	1,49	21053,5	0,000**
	9-sinf	253,64			

Tadqiqotda kreativlikning har xil turlarini aniqlashni maqsad qilib belgilagan edik. Yuqorida noverbal intellekt va tafakkur turlarini 7-sinf hamda 9-sinflar orasidagi farqlarni aniqladik. Ye. Iinning «Ijodkorlik» metodikasi verbal intellektni aniqlashga mo'ljallangan. Bizga ma'lumki noverbal va verbal intellektni namoyon bo'lishi shaxsda turlicha bo'ladi. Ularning individual va yoshga oid farqlari mavjud. Yuqoridagi jadvalda 7-sinf va 9-sinf natijalari aks etgan. Unga ko'ra noverbal intellektni namoyon bo'lishida ahamiyatli farqlar aniqlangan. Ijodkorlik metodikasi bo'yicha 7-sinf o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 206,75 ga teng bo'lsa, 9-sinflarda bu ko'rsatkich 253,64 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=21053,5$ ;  $p \leq 0,01$ ). Verbal intellekt murakkab ong darajasiga bog'liq hisoblanadi. Bu yosh dinamikasiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirlarning bilishga bo'lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi o'smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyati paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi. Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Tadqiqotda ixtisoslashtirilgan maktab va umumta'lim maktabi o'quvchilarining kreativlik darajasini aniqlashni o'z oldimizga vazifa sifatida belgilaganmiz. Bu vazifani bajarish jarayonida ham ikki maktab o'quvchilarning metodikalardagi misollarni yechish tezligi va sifati o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini kuzatdik. Bu farqlarni son ko'rsatkichlarida quyidagi 3-jadvalda aks ettirdik.

Quyidagi 1-rasmda 9-sinf o'smirlarining kreativlik rivojlanishida jins farqlari natijalarini keltirdik. P.Torrensning kreativlikni aniqlaydigan testi murakkab topshiriqlardan iborat bo'lib, u o'smirdan abstrakt tafakkurni talab etadi. Aynan abstrakt tafakkur o'g'il bolalarda kuchli rivojlangan hisoblanadi. Bundan tashqari, o'g'il bolalar ma'lum aqliy topshiriqlarni yechish jarayonida ikkita yarim sharlarini alohida mustaqil tarzda ishlata olishadi. Qiz bolalar esa, aksincha, bir vaqtning o'zida ikkala yarim sharlarini bir xil tarzda ishlatadilar. O'g'il bolalardagi bu o'ziga xoslik ularda ilmiy, aqliy, mantiqiy bog'lanishlarni tezda anglashga va amaliyotga qo'llay olishga imkon beradi.



**1-rasm. E.Torrensni «Ijodiy fikrlash» testi bo'yicha 9-sinf o'quvchilarining jins kesmida o'zaro tafovutlari**

E.Torrens metodikasining 9-sinf o'quvchilaridagi jinsiy farqlari aks etgan. «Tezlik» shkalasi bo'yicha qiz bolalarda o'rtacha rang 93,64 ga teng bo'lsa, o'g'il bolalarda esa bu ko'rsatkich 141,86 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=3920,5$ ;  $p \leq 0,01$ ).

### 3-jadval

**P.Torrensning «Ijodiy fikrlash» testi bo'yichi maktab darajasi kesmida o'zaro tafovutlari (Manni Uitni mezonida  $n=70$ )**

Ko'rsatkichlar	Maktab turi	O'rtacha rang	$\sigma$	U	p
Tezlik	Ixtisoslashtirilgan	45,00	12,064	289,0	,000**
	Umumta'lim	26,53			
Originallik	Ixtisoslashtirilgan	32,71	6,713	517,0	,197
	Umumta'lim	38,14			
Abstakt nomlash	Ixtisoslashtirilgan	38,51	3,953	509,5	,000**
	Umumta'lim	32,65			
Uzoq o'ylanish	Ixtisoslashtirilgan	32,28	3,775	502,5	,006**
	Umumta'lim	38,54			
Sinchkovlik	Ixtisoslashtirilgan	46,96	11,082	222,5	,000**
	Umumta'lim	24,68			

Izoh: \* -  $p \leq 0,05$ ; \*\* -  $p \leq 0,01$

«Originallik» shkalasi bo'yicha qiz bolalarda o'rtacha rang 105,52 ga teng bo'lsa, o'g'il bolalarda esa bu ko'rsatkich 128,68 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=5370,5$ ;  $p \leq 0,01$ ).

E.Torrens testi «Tezlik» shkalasi bo'yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Tezlik» shkalasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 45,00 ga teng bo'lsa, umumta'lim

maktab o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 26,53 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=289,0$ ;  $p\leq 0,01$ ). «Originallik» shkalasi bo'yicha ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatsiz farqlar aniqlandi. «Abstakt nomlash» shkalasi bo'yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Abstakt nomlash» shkalasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 38,51 ga teng bo'lsa, umumta'lim maktab o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 32,65 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=509,5$ ;  $p\leq 0,01$ ). «Uzoq o'ylanish» shkalasi bo'yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi.

«Uzoq o'ylanish» shkalasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 32,28 ga teng bo'lsa, umumta'lim maktab o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 38,54 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=502,5$ ;  $p\leq 0,01$ ). «Sinchkovlik» shkalasi bo'yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Sinchkovlik» shkalasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 46,96 ga teng bo'lsa, umumta'lim maktab o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 24,68 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=222,5$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Quyidagi 4-jadvalda J.Brunnerning ijodkorlik va fikrlash turini aniqlashga mo'ljallangan metodikasining ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktab o'quvchilaridagi natijalari berilgan.

Unga ko'ra, «Predmetli tafakkur» shkalasi bo'yicha ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatsiz farqlar aniqlandi. «Ramziy tafakkur» shkalasi bo'yicha ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi.

#### 4-jadval

#### J.Brunnerning «Tafakkur va kreativlik» so'rovnomasi bo'yicha maktab darajasi kesmida o'zaro tafovutlari (Manni Uitni mezonida $n=70$ )

Ko'rsatkichlar	Maktab turi	O'rtacha rang	$\sigma$	U	p
Predmetli tafakkur	Ixtisoslashtirilgan	38,69	2,321	503,500	,197
	Umumta'lim	32,49			
Ramziy tafakkur	Ixtisoslashtirilgan	44,82	3,084	295,000	,000**
	Umumta'lim	26,69			
Belgili tafakkur	Ixtisoslashtirilgan	42,29	3,508	381,000	,006**
	Umumta'lim	29,08			
Obrazli tafakkur	Ixtisoslashtirilgan	44,50	3,220	306,000	,000**
	Umumta'lim	27,00			
Kreativlik	Ixtisoslashtirilgan	39,00	2,3104	493,000	,158
	Umumta'lim	32,19			

Izoh: \* -  $p\leq 0,05$ ; \*\* -  $p\leq 0,01$

«Ramziy tafakkur» shkalasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 44,82 ga teng bo'lsa, umumta'lim maktab o'quvchilarida bu ko'rsatkich 26,69 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=295,000$ ;  $p\leq 0,01$ ).

«Belgili tafakkur» shkalasi bo'yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Belgili tafakkur» shkalasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 42,29 ga teng bo'lsa, umumta'lim maktab o'quvchilarida bu ko'rsatkich 29,08 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=381,000$ ;

$p \leq 0,01$ ). «Obrazli tafakkur» shkalasi bo'yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. «Obrazli tafakkur» shkalasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida o'rta arifmetik qiymat 44,50 ga teng bo'lsa, oddiy maktab o'quvchilarida bu ko'rsatkich 27,00 teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $U=306,000$ ;  $p \leq 0,01$ ). «Kreativlik» shkalasi bo'yicha ham ikkala guruh sinaluvchilari orasida ahamiyatsiz farqlar aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**O'smirlarda kreativlikni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda o'smirlarda kreativlikni rivojlantirish uchun taklif etilayotgan uslubiy yondoshuvlar va vositalar tahlili hamda ushbu maqsadda ishlab chiqilgan mualliflik mazmunidagi ishlanmaning asoslanishi, uning aprotatsiya natijalari va samaradorligi tahlili keltirilgan.

Ushbu bobda o'smirlarda kreativlik rivojlanishining korrelyasion aloqadorliklari aniqlangan. Ijodiy tafakkur miya yarim sharlarining dominantalik xususiyati bilan korrelyasion aloqasi quyidagi jadvallarda keltirilgan.

#### 5-jadval

#### Ixtisoslashgan maktab o'quvchilarning fikrlash hamda miya yarim sharlari dominantaligi orasida korrelyasion aloqadorligi (Spirmen mezoni bo'yicha, $n=36$ )

Ko'rsatkichlar	Predmetli tafakkur	Ramziy tafakkur	Belgili Tafakkur	Obrazli tafakkur	Kreativlik
O'ng yarim shar	,329	-,271	-,079	,509**	,339*
Chap yarim shar	-,306	,225	,105	-,505**	-,356*

Miya yarim sharlarining dominantaligi va ijodkorlik va fikrlash turlari orasida korrelyasion aloqadorliklar aniqlangan. O'ng yarim shar va obrazli tafakkur orasida musbat bog'lanish aniqlangan ( $r= 0,509$ ;  $p \leq 0,01$ ). O'ng yarim shar va kreativlik orasida musbat bog'lanish aniqlangan ( $r= 0,339$ ;  $p \leq 0,05$ ). Chap yarim shar va obrazli tafakkur orasida manfiy bog'lanish aniqlangan ( $r= -0,505$ ;  $p \leq 0,01$ ). Chap yarim shar va kreativlik orasida manfiy bog'lanish aniqlangan ( $r= -0,359$ ;  $p \leq 0,05$ ).

Quyidagi 6-jadvalda «Shaxsning psixodinamik xususiyatlarining diagnostikasi» va E.Torrensni «Ijodiy fikrlash» testi orasida korrelyasion aloqadorlik aniqlandi.

Ekstrovertsiya shkalasi va tezlik orasida musbat bog'lanish aniqlangan ( $r= 0,43$ ;  $p \leq 0,05$ ). Bizga ma'lumki, shaxsdagi ekstrovertlik xususiyati tashqi olamga va munosabatga nisbatan ijobiy yo'nalganlik bo'lib, bu undan o'ziga nisbatan ishonchni ham yaxshi rivojlangan bo'lishini ta'minlaydi. Demak, shaxsda ekstrovertsiya ortgan sari unda ijodiy tezlik ham ortishi aniqlandi. Emotsional qo'zg'uluvchanlik shkalasi va uzoq o'ylanish orasida manfiy bog'lanish aniqlangan ( $r=-0,21$ ;  $p \leq 0,05$ ). Emotsional qo'zg'uluvchanlik nerv tizimi bilan bog'liqdir. Emotsional qo'zg'uluvchanlik yuqori bo'lgan o'smirlarda diqqatni va fikrni jamlashning quyiligi, yangi qo'zg'atuvchilarga nisbatan chalg'uvchanlik sodir bo'ladi. Uzoq o'ylanish shkalasi qaror qabul qilishda uzoq muddat bir to'xtamga kelolmaslik va yangiliklarga yopiqlikni bildiradi. Demak, emotsional qo'zg'uluvchanlik ortishi, qaror qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlarda E.Torrensning «Ijodiy fikrlash» testi hamda «Shaxs psixodinamik xususiyatlarining diagnostikasi» metodikasi shkalasi o'rtasida korrelyatsion aloqadorligi (Spirmen mezonini bo'yicha, n=34)

Ko'rsatkichlar	Tezlik	Originallik	Abstrakt nomlash	Uzoq o'ylanish	Sinchkovlik
Ekstroversiya	0,43*	0,55	0,47	0,38	0,17
Rigidlik	0,07	-0,28*	0,10*	0,11	-0,47*
Emotsional qo'zg'aluvchanlik	0,22	0,17	0,08	-0,21*	-0,13*
Reaksiya tempi	0,21*	-0,22	0,26*	-0,01	-0,04
Faollik	0,03	0,43*	0,15	-0,20	-0,26
Samimiylik	0,13	0,55	-0,25	0,03	0,01

Tadqiqotda o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan dastur tuzish vazifasini ham belgilagandi. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun «Tasavvurimiz bilan oygacha uchamiz!» nomli rivojlantiruvchi dastur tuzdik. Kreativlikni rivojlantiruvchi biz tomonimizdan tuzilgan dasturda psixoterapiyaning ilg'or ilmiy yo'nalishlari va maktablari (bixeviorizm, goloterepiya, neyrokorreksiya, arterapiya, geshtalterapiya, kognitiv psixoterapiya va b.) metodologik asos qilib olindi.



2-rasm. «Kreativlikni rivojlantirish modeli»

Dastur o'quvchilar bilan 2 oy davomida haftasiga 1 martadan 1,5 soatdan mashg'ulot o'tkazishga mo'ljallangan hamda yaxlit tizimlashtirilgan tuzilishga ega. Har bir mashg'ulot 4 tadan mashqni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning birinchisi guruhda asosiy ish oldidan erkin ijodiy muhitni hosil qilish, keyingi ikkitasi ijodiylikni rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirish, oxirgisi relaksatsion umumlashtiruvchi refleksiv, ya'ni amaliy ish natijalariga, unda ishtirok etgan odamlarning tahliliy e'tiborini qaratish uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar kichik 7-12 kishilik guruhlarda o'tkazilishi tavsiya qilinadi. «Tasavvurimiz bilan oygacha uchamiz!» nomli dastur eksperimental guruh sinaluvchilarida o'tkazildi. Eksperimental guruhni Ye.Torrense va J.Brunner metodikalari bo'yicha yuqori natija olgan respondentlar tashkil etdi. Nazorat guruhini ushbu metodika bo'yicha quyi va o'rtacha natija olgan respondentlar tashkil etdi.

Kreativlikni rivojlantiruvchi biz tomonimizdan tuzilgan dastur uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida tuzilgan. Kreativlikni rivojlantiruvchi dastur mexanizmi yuqoridagicha tasnifga ega.

